TOSHKENT VILOYATI YANGIYO`L SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 22 - fevral 58-10-196-Q/24 Yangiyo‘l shahar hokimligi

Yangiyo‘l shahrida mobil ilovalar va elektron plaftormani ishga tushirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan “Tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustivor vazifalar to‘g‘risida”gi videoselektor yig‘ilishining 48-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasiga muvofiq, Yangiyo‘l shahrida aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, byurokratik tartibotlarni qisqartirish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Yangiyo‘l shahar hokimligining buyurtmasi asosida Yangiyo‘l shahrida **“Mening kelajakdagi uyim”** va **“Mening uyim Yangiyo‘l”** mobil ilovalarini hamda **“Xatlov”** elektron platformasi ishlab chiqilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2. Bu mobil ilovalar va elektron platformani ishga tushirishdan asosiy maqsad va vazifalar etib qo‘yidagilar belgilansin:

- **“Mening kelajakdagi uyim”** mobil ilovasi - Yangiyo‘l shahrida qurilayotgan ko‘p qavatli uylarni sotilishida sodir etilishi mumkin bo‘lgan har xil firibgarliklar, bir xonadonni bir nechta fuqaroga sotilishini oldini olish, fuqarolarni aldanib qolishlaridan himoya qilish, shuningdek aholini qurilishning qonuniyligi, qurilish loyihasi, yaratilayotgan qulayliklari, foydalanishga topshirish sanasi, xonadonlarni

narxi haqidagi va boshqa ma’lumotlarga ega bo‘lishlari uchun qulay imkoniyat yaratib berish;

- **“Mening uyim Yangiyo‘l”** mobil ilovasi – aholini kommunal va soliq qarzdorliklari haqidagi ma’lumotlarni bir joyga jamlash ularni hisobini yuritish;

- **“Xatlov”** elektron platformasi - mahallalarda yashovchi aholini xonadonbay xatlovdan o‘tkazish, shaharning aholisi haqidagi aniq ma’lumotga ega bo‘lish, ijarachi xonadonlarni hisobini yuritish, ishsiz fuqarolarni aniqlash;

3. Shahar hokimining o‘rinbosari (Usmanov)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ruxsati bilan ishga tushirilayotgan mobil ilovalar va elektron platformani “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuvi ta’minlansin:

- **“Mening kelajakdagi uyim”** mobil ilovasi – shaxsga tegishli ma’lumotlar integratsiyasi;

- **“Mening uyim Yangiyo‘l”** mobil ilovasi – kommunal sohasiga oid elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi, issiqlik manbai, chiqindi, boshqaruv servis kompaniyasi (BSK), Davlat soliq inspeksiyasi va kadastr palatasi elektron bazalari bilan integratsiyasi;

- **“Xatlov”** elektron platformasi – shaxsga oid ma’lumotlar bazasiga va kadastr palatasi elektron bazasi bilan integratsiyasi.

4. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Isanboev)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar” ilmiy axborot markazi DUK tomonidan Yangiyo‘l shahrida **“Mening kelajakdagi uyim”** va **“Mening uyim Yangiyo‘l”** mobil ilovalarini hamda **“Xatlov”** elektron platformasi ishlab chiqilishi va server xarajatlari mahalliy byudetning orttirilgan mablag‘lari hisobidan ajratilsin;

5. Yangiyo‘l shahar hokimligi matbuot xizmati (Naxalov):

Yangiyo‘l shahrida **“Mening kelajakdagi uyim”** va **“Mening uyim Yangiyo‘l”** mobil ilovalarini hamda **“Xatlov”** elektron platformasi ishlab chiqilishi va ishga tushirilishi haqidagi mazkur qaror va bu mobil ilovalarni ishga tushirishdan asosiy maqsad va vazifalar haqidagi ma’lumotlar Yangiyo‘l shahar hokimligining rasmiy WEB saytida joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini hokim o‘rinbosari A.Usmanov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **D.Sultanov**